

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA
INVESTITSIYA FAOLIYATI, UNING TURLARI**

*Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası
mudiri, i.f.n., professor*

«O‘z-o‘zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ko‘zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so‘z yuritish mumkin emas. Bu vazifaning o‘rtaga qo‘yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo‘yicha raqobatning yildan yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog‘liq, albatta.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va tejkik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish bo‘yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016-yillarda hisobkitoblar bo‘yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo‘lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda. Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish mo‘ljallangan. Jumladan, Surshl koni bazasida Ustyurt gazkimyo kompleksi, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar va Qo‘ng‘irot sodazavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi. Shuningdek, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug‘-gaz qurilmasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari va transportyor tasmasi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish,

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

to'qimachilik korxonalarini quvvatlarini yanada kengaytirish va butun texnologik jarayonni takomillashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tkazish va tarmoqlar iqtisodini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida davlatning olib borgan investitsiya siyosatini hayotga tatbiq etish natijasida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yuksalishlar yuz bergan. Xalq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan

bilan to'ldirishga va xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga har tomonlama o'z hissasini qo'shgan.

Investitsiya lotincha «INVEST» so'zidan olingan bo'lib «sarmoya» degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda qo'llanilganda foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida va chet ellarda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga qo'yilgan uzoq muddatli mablag' sarmoyani bildiradi. Bugungi kunda investitsiya va investitsion jarayon tushunchasiga amaliyotchilar har xil nuqtayi nazardan qaraydilar. Ayrim olimlar investitsiyani hali ham «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalariga tenglashtirib keladilar. Aslini olganda, investitsiya hajmi jihatdan ham, rang-barangligi jihatdan ham hozir aytilgan kategoriyalardan ustun turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalari investitsiyalarning tarkibiy qismidir. Investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bu o'rinda «investitsiya» tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual qadriyatlarni takror ishlab chiqarish in'ikosi bo'lishini dastlabki va asosiy tushuncha bo'lib maydonga chiqishini unutmaslik kerak. Bizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt ichida ular ancha takomillashdi. Investitsiya to'g'risida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha investitsiya – bu iqtisodiy samara olish yoki ijobiy ko'rinishdagi ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar kabilar, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar va samara beradigan boshqa har qanday boylklardir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va investitsiya to'g'risida respublikamizda qabul qilingan qonunning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda 3 ta turini ajratish mumkin:

1. Moliyaviy investitsiyalar.
2. Moddiy investitsiyalar.
3. Intellektual (aqliy) investitsiyalar.

Iqtisodiyotni modernitsiya qilish sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbobuskunalar, inshootlar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi. Intellektual (aqliy) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kirgan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanishiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi.

Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau» kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari ko'rinishidagi investitsiyalari yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi. Hamma turdagi investitsiyalar, ularning hajmidan qat'iy nazar, biror-bir investitsion jarayonning natijasidir.

Investitsiyada qatnashish tasnifiga ko'ra:

a) to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar - asosan obyekt aniq ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo'lgan taqdirda yo'naltirilgan mablag'dir.

b) boshqa investitsiyalar – bular vositachilar orqali obyektlarga sarflanadi va olingan daromad mijozlar o'rtasida taqsimlanadi.

Investitsiyalash davriga qarab qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi: qisqa muddatli investitsiyalar bir yilgacha bo'lgan omonat sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardir; uzoq muddatli investitsiyalar bu bir yildan ortiq muddatlarga qo'yilgan kapital bo'lib, 2 yilga, 2-3 yil va 5 yildan ortiq muddatlarga ham qo'yilishi mumkin.

Hududiy belgilari bo'yicha investitsiyalar quyidagicha bo'linadi:

a) mamlakat ichkarisi va hududlarga qo'yiladigan investitsiyalar;

b) xorijga investitsiyalar qo'yish, xorij investitsiyalarining kirib kelishi yoki aksiya, obligatsiyalar shaklida ham bo'lishi mumkin;

d) xorij investitsiyalari deganda chet el fuqarolari, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan qo'yilgan investitsiyalar tushuniladi;

e) hamkorlikdagi investitsiyalarga mazkur mamlakat va xorij mamlakatlarining birgalikda qo'yadigan investitsiyalari kiradi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, investitsion kompleks bir necha elementlardan iborat, ularning asosiylari quyidagilardir: investitsiya siyosati, investitsiya iqlim va muhiti, investitsion faoliyati, kapital qo'yilmalari, investitsiya

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

bosqichlari va boshqalar. Ushbu elementlarning har biri bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'ziga xos yo'nalishga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. -104 b.
3. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Oltaev Sh.S. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma, Samarqand. SamISI, 2022, 84 bet.
4. Pardayeva M.Q., Xoliqulov A.N., Jumayeva G.J. Investitsion loyihalar tahlili. O'quv qo'llanma. T.: “Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 250 bet
5. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoev T.I. Moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish. O'quv-qo'llanma, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 138 bet.
6. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand.: “Turon nashr” nashriyoti, 2021. – 212-bet.
7. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
8. Xoliqulov A.N,Usmanova D.Q., A.O.Qarshiyev. Tarmoqlar sohasini tartibga solish va raqobat. O'quv qo'llanma. Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 174 bet
9. Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil va audit. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2023, 209 bet